

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil).– 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Nazirov Sardor

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN
ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI 5-8

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Yodgorov Normumin, Amirqulova Nigora

INDIGOFERANING SUG'ORISH MUDDATLARI VA MEYORLARI 9-12

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU UBAYDA IBN al-JARROHNING TIBBIYOT TARIXIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSI 13-15

IQTISODIYOT FANLAR

Mengniyozov Anvar

JAHONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING EVOLYUTSIYASI 16-20

FALSAFA FANLARI

Nabiyev Sherzodjon

KIBERAGRESSIYA FENOMENI VA YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLARI 21-26

FILOLOGIYA FANLARI

Nasriyev Nurullo

ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING
AHAMIYATI 27-28

YURIDIK FANLAR

Xursanov Shamsiddin

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI 29-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Sodiqova Gulnora

ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDAGI KASBIY TA'LIM DASTURLARINI RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA QILISH 34-39

Ganiyev Elyorbek

TALABALARDA QONUNIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH METODIKASI 40-45

Xabibullayev Alimardon

TALABALAR MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHMA TA'LIMNING INSTITUTSIONAL
BOSHQARUV MEXANIZMLARI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) 46-51

Nigmatova Nozimaxon

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT
TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH 52-54

Abdullayeva Asila

TARIXIY VA FALSAFIY BILIMLARNI BIRLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIMDA
INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNI TATBIQ ETISH 55-60

Ergasheva Nigora

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 61-64

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR 65-68

Shamsiddinova Durdona

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QILGAN MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI 69-71

Yuldasheva Maftuna

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA VA PSIXOLOGIK TA'SIR USULLARINI O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR 72-77

Butayev Norbek

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI 78-80

Rajapov Sulaymon

ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 81-84

Samandarova Nargiza

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV DOIRASIDA IQTISODCHILARNING KASBIY NUTQ TAYYORGARLIGINI TAKOMILASHTIRISH 85-87

Sobirov Qobuljon

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI 88-93

Raxmanova Nigora

ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA AN'ANAVIY SHOGIRDLIK TIZIMINING UYG'UNLIGI 94-99

Xalberdiyev Ziyodilla

TA'LIM MENEJMENTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 100-102

Kamolov Baxtiyor

EKOLOGIK TARBIYA VA TURIZM FANLARI INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALAR MADANIY-MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH 103-108

TIBBIYOT FANLARI

Сайдуллаева Мукаддам, Абдукадирова Лазиза

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ИСТОКИ МЕДИЦИНСКИХ ЭМБЛЕМ И ИХ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ 109-115

SIYOSIY FANLAR

Уразбаев Абатбай

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 116-120

TEXNIKA FANLARI

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Nazirov Sardor Jamoliddin o'g'li

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti"

Milliy tadqiqot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-3291-3058>

Tel: +99897 7169938

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir mavsumda bug'doy va paxta yetishtirishni ta'minlovchi resurs tejamkor elektrotexnologiyaning iqtisodiy samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqotlar 2024–2025 yillarda Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani fermer xo'jaliklari sharoitida olib borilib, urug'larga ultrabinafsha nurlar (253,7 va 300 nm) hamda elektrofaollashtirilgan suv yordamida ishlov berish usuli qo'llanilgan. Tajriba natijalari elektrotexnologiya qo'llanilganda bug'doy va paxta hosildorligi nazorat variantlariga nisbatan sezilarli darajada oshishini ko'rsatdi. Iqtisodiy hisob-kitoblarga ko'ra, bir gektar maydonda bug'doy va paxtani ketma-ket yetishtirishda elektrotexnologiyadan foydalanish 10,1 mln so'm sof foyda olish imkonini beradi. Olingan natijalar mazkur texnologiyaning qishloq xo'jaligida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: elektrotexnologiya, ultrabinafsha nurlar, elektrofaollashtirilgan suv, bug'doy, paxta, iqtisodiy samaradorlik.

ECONOMIC EFFICIENCY OF AN ELECTRICAL TECHNOLOGY ENSURING THE CULTIVATION OF WHEAT AND COTTON IN A SINGLE GROWING SEASON

Nazirov Sardor Jamoliddin ugli

Independent Researcher

Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

National Research University

Annotation. This article investigates the economic efficiency of a resource-saving electrotechnology that enables the cultivation of wheat and cotton within a single growing season. The research was conducted in 2024–2025 under the conditions of farm enterprises in the Urta Chirchik district of the Tashkent region, using seed treatment with ultraviolet radiation (253.7 and 300 nm) and electroactivated water. The experimental results demonstrated that the application of electrotechnology significantly increased the yields of wheat and cotton compared to the control variants. According to economic calculations, the use of electrotechnology for the successive cultivation of wheat and cotton on one hectare provides a net profit of 10.1 million UZS. The obtained results confirm the перспективность of this technology in ensuring food security and improving the efficiency of agricultural production.

Key words: electrotechnology, ultraviolet radiation, electroactivated water, wheat, cotton, economic efficiency.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i3/n01>

Kirish. Iqlim o'zgarishi va yildan yilga aholi sonining o'sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini kamaytirish zarurati zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bir mavsumda ikki xil strategik ahamiyatga ega bo'lgan ekinlar bug'doy va uning ang'izida g'o'za

yetishtirishni ta'minlovchi resurs tejamkor elektrotexnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish sharoitida asoslash muhim ahamiyat kasb etadi [5; 19–20-b.].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 apreldagi PQ-5032-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti tashkil etildi va uning tarkibida "Elektrotexnologiyalar va energetik uskunalarni ekspluatatsiya qilish" ilmiy tadqiqot laboratoriyasi tashkil etildi [4; 11–13-b.].

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida elektrtexnologiyalarni qo'llash — urug'ni elektr maydonida ishlov berish, o'simlik o'sishini elektromagnit ta'sir orqali rag'batlantirish keng tadbiiq qilinmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, elektr energiyasi asosidagi texnologik yechimlar o'simliklarning fiziologik rivojlanishini tezlashtiradi, hosildorlikni oshiradi va resurs sarfini kamaytiradi [1, 5].

O'tgan 3-5 yilda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "urug', tuproq, o'simlik"ka UBN va EFS bilan bosqichli va majmuy ishlov berishning samaradorligini kartoshka, paxta, qovun, mosh va cho'l o'tlari yetishtirishda hamda pillachilik sohasida aniqlandi [2; 19–20-b.].

Ushbu tadqiqotlar natijalari bir mavsumda kartoshkadan 2-3 marta hosil olish, don ekinlari, jumladan arpa, bug'doydan keyin ikkinchi ekin sifatida g'o'za, mosh, kartoshka, sabzi va boshqa kuzda hosil beradigan ekinlar ekish mumkinligi ham elektrotexnologiyaning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi "Umid" va "Dul-dur" fermer xo'jaliklarida 2024-2025 yillarda o'tkazildi. Kuzgi bug'doyning "Grom" navi urug'lari Ultrabinafsha nurlar bilan quyidagi rejimlarda ishlov berildi:

Birinchi variant- $P_{253,7} + P_{300} = 30+30$; $H=20$ sm; $\tau=22$ sek.

Ikkinchi variant- $P_{253,7} + P_{300} = 60+60$; $H=20$ sm; $\tau=22$ sek.

Uchinchi variant- $P_{253,7} + P_{300} = 90+90$; $H=20$ sm; $\tau=22$ sek.

Variantlar kesimida 25 kilogramdan bug'doy doni ajratilib $60 \times 30 \times 2,0$ sm lik plastmassa kaseyeta 2,5 kg dan 1,0 sm qalinlikda solinib, UBN bilan bug'doy urug'ini seskantirish har birining quvvati 30 W bo'lgan 6 lampali statsionar elektr tarmog'iga ($U=220V$) ulanadigan nurlatgichda amalga oshirildi.

Elektr seskantirilgan 200 kg bug'doy urug'i 2024 yilning 21 oktyabr kuni har bir fermer xo'jaligi dalasiga 100 kg dan traktor bilan agregatlangan urug'ni sohib ekadigan seyalkada yuqorida keltirilgan tajriba variantlariga va nazorat UBN bilan seskantirilmagan 200 kg bug'doy urug'i nazorat uchun ajratilgan ikkala dalaning ikkinchi yarmiga ekildi.

Urug'lik chigitni nurlash oldidan namlash uchun sarflangan EFS miqdori 10 litr katolit suv. Vegetatsiya davrida UBN bilan g'o'za uch marta nurlantirilgan, har bir nurlantirilgan g'o'zalarga katolit+anolit bir gektar maydondagi g'o'zaga 100 litr suv sarfidan kelib chiqib, 25 litrdan suv purkalgan, jami 85 litr suv ishlatildi. Ushbu hajmdagi suvni faollashtirish uchun 1 kVt-soat elektr energiya sarflanadi.

1-jadval

T/r	Ko'rsatkichlar	Soni	Narxi (so'm)
1	Diod ko'prigi	1	10 000
2	Zanglamaydigan metall elektrod	2	40 000
3	Elektr provod (mis)	3	12 000

4	Vilka	1	8 000
5	Plastik idish (30 litr)	1	650 000
6	Diofragma brezent	0,1 m ²	2 000
7	Kley	2	50 000
8	Klemma	4	10 000
9	Suv miqdori	2	40 000
10	Indikator	1	30 000
	Jami		832 000

Urug'lik bug'doy va chigitni xarid qilishga sarflangan xarajatlar, ularni vegetatsiya davrida sug'orishga sarflangan xarajatlar, urug'larni xarid qilishga ketgan xarajatlar, shuningdek, yetishtirilgan hosilni yig'ib-terib olishga sarflangan xarajatlarning tajriba va nazorat variantlarida bir xil ekanligidan kelib chiqib, elektrtexnologiyani amaliyotini ta'minlash uchun sarflangan xarajatlar amaldagi o'simliklarni yetishtirishga sarflangan xarajatlarga nisbatan ustama ekanligini e'tiborga olib, iqtisodiy samaradorlikni elektrtexnologiya qo'llab yetishtirilgan hosil hisobiga olingan qo'shimcha hosil narxiga teng deb qabul qilindi.

Bir gektar maydonda yetishtirilgan qo'shimcha paxta hosili 1,0 tonnani tashkil qilganda
2-jadval

T/r	Qurilmani yasashga qo'llanilgan narsalar nomi	O'lchov birligi	Narsalarning qiymati	Narsalarning 2024 yildagi narxi (so'mda)
1	Nurlatgich	dona		
2	Bakteritsid lampalar ($\lambda = 253,7 + 300 \text{ nm}$)	dona	3+3=6	6×75 000=150 000
3	Bakteritsid lampalar o'rnatiladigan taglik, elektr energiyasiga ulanish moslamasi bilan	Dona	6	6×80 000=480 000
4	Akkumulator	dona	1	650 000
5	Invertor 12/220 (1000 W)	dona	1	500 000
6	Elektr sim	metr	5	20 000
7	3 qutbli rozetka	dona	2	40 000
8	Izolenta	dona	1	4 000
9	Himoya ko'z-oynagi	dona	1	120 000
10	Vilka	dona	6	48 000
11	Qurilma korpusini yasash uchun kerakli materiallar: - Fanera - Yog'och reyka - Samarez (mix) - Ushlagich - Kraska - Nikellangan yaltiroq plenka	m ² m dona dona litrlar m ²	1,5 3,0 30 4 1,0 0,8	100 000 20 000 4 000 8 000 30 000 50 000

	- kley	dona	2,0	5 000
	Jami			2 529 000

Elektrotexnologiya qo'llab bir mavsumda ketma-ket bir gektar maydonga bug'doy va paxta ekilgandagi yetishtirilgan qo'shimcha bug'doy va paxtadan olingan foydadan elektrotexnologiyani amaliyotini ta'minlaydigan energetik qurilmalar (UBN yoritgich va EFS chiqaruvchi avjlantirgich)ga sarflangan xarajatlar hisobga olgan holda:

$$QF_{(\text{bug'doy})} + QF_{(\text{paxta})} - EK_{(\text{UBN} + \text{avjlantirgich})}$$

Hisob-kitoblar natijasiga ko'ra:

$$8\,946\,000 + 4\,522\,500 - (2\,529\,000 + 832\,000 + 6\,000) = 13\,468\,500 - 3\,367\,000 = 10\,101\,500 \text{ so'm} \approx 10,1 \text{ mln so'm/ga. -Sof foyda}$$

Bir mavsumda bug'doy va paxta yetishtirishda agroelektrotexnologiya qo'llanilganda, bug'doydan 1,76 marta, paxtadan esa 1,35 marta nazoratga nisbatan qo'shimcha hosil olishni ta'minlagan holda bir gektardan 10,1 mln so'm sof foyda olishni ta'minlaydi.

Xulosa. Qishloq xo'jaligida "urug', tuproq, o'simlik"dan tashkil topgan murakkab biologik ob'ektga bosqichli elektrotexnologik ishlov berish qishloq xo'jalik ekinlari, jumladan bug'doy va paxtadan mo'l hosil olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "urug'-tuproq-o'simlik" tizimiga bosqichli va majmuiy elektrotexnologik ishlov berish bug'doy va paxta yetishtirishda yuqori agrotexnik va iqtisodiy samara berishi aniqlandi. Ushbu texnologiya qo'llanilganda bug'doy hosildorligi 1,76 marta, paxta hosildorligi esa 1,35 marta nazorat variantlariga nisbatan oshishiga erishilgan.

Bir mavsumda ketma-ket bug'doy va paxta yetishtirish orqali bir gektar yer maydonidan o'rtacha 10,1 mln so'm sof foyda olish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, elektrotexnologiya resurs tejamkorligi, ekologik xavfsizligi va amaliyotga joriy etish imkoniyati bilan ajralib turadi. Olingan natijalar mazkur texnologiyani respublika qishloq xo'jaligi amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдурахмонов А.А. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологиялар. – Тошкент: Фан, 2020.
2. Мухаммадиев А. Кадирова Д. А. Умарова Г. Стафарова Е. Ю. К изучению физико-биологического механизма электровоздействия на хлопчатник. Вестник Аграрной науки Узбекистана, Ташкент 2001 года, номер 2, (4), страница 60-63.
3. Қурбонов Б.Б., Раҳмонов Ш.Ш. Электротехнологияларни қишлоқ хўжалигида қўллаш асослари. – Тошкент: ТИҚХММИ, 2021.
4. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маълумотлари, 2022.
5. FAO. *Sustainable crop production intensification*. Rome, 2019.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil). – 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.